

Shaxslararo munosabatlar tizimida talabalar ijtimoiy faolligini oshirish omillari.

Ergashqulov Boburjon Nusratillayevich
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'limga moslashishda shaxslararo munosabatlar hamda talabalar ijtimoiy faolligi haqida fikr yuritiladi, shuningdek, talabalarning oliy ta'lim muassasalariga moslashuv jarayonida uchraydigan psixologik xususiyatlarni tahlil qiladi. Yangi muhitga kirish, akademik talablar, ijtimoiy aloqalar va shaxsiy hayotdagi o'zgarishlar talabalar uchun murakkab vaziyatlarni yaratadi. Ushbu maqolada psixologik inqirozlarning sabablari, ularning talabalarning ruhiy holatiga ta'siri va muvaffaqiyatli moslashuv uchun zarur bo'lgan strategiyalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: faollik, munosabatlar, oliy ta'lim, talabalar, moslashuv jarayoni, psixologik xususiyatlar, stress, bezovtalik, depressiya, qo'llab-quvvatlash, strategiyalar.

Аннотация: В статье рассматриваются техники формирования адаптации к высшему образованию, а также анализируются психологические характеристики студентов в процессе адаптации к высшим учебным заведениям. Введение в новую среду, академические требования, социальные отношения и изменения в личной жизни создают для студентов сложные ситуации. В статье исследуются причины психологических кризисов, их влияние на психическое состояние студентов и стратегии, необходимые для успешной адаптации.

Ключевые слова: высшее образование, студенты, процесс адаптации, психологические характеристики, стресс, тревога, депрессия, поддержка, стратегии.

Abstract: The article discusses the methodology and techniques for forming adaptation to higher education, as well as analyzes the psychological characteristics of students during the process of adaptation to higher education institutions. Introduction to a new environment, academic requirements, social relationships and changes in personal life create complex situations for students. This article examines the causes of psychological crises, their impact on the mental state of students and the strategies necessary for successful adaptation.

Keywords: methodologies, methodology, higher education, students, adaptation process, psychological characteristics, stress, anxiety, depression, support, strategies.

KIRISH. Oliy ta'lim muassasasida shaxslararo munosabatlar tizimi va talabalar ijtimoiy faolligini oshirish omillari haqida gapirar ekanmiz, avvalo shaxslararo munosabatlar-bu ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik aloqalar tizimi bo'lib, u ta'lim jarayonida juda muhim o'rin tutadi, shuni qayd etish kerakki, oliy ta'lim muassasasi shaxslararo munosabatlar tizimida talabalar ijtimoiy faolligini



oshirish omillari juda muhim masala hisoblanadi, chunki bu omillar nafaqat talabaning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham ta'sir ko'rsatadi. Quyida bu mavzuni to'liq va tizimli tarzda ko'rib chiqishga harakat qilamiz:

1. Shaxslararo munosabatlar tizimi tushunchasi, bu nima degani, oliy ta'lim muassasasida shaxslararo munosabatlar tizimi deganda talabalar, o'qituvchilar, rahbariyat va boshqa xodimlar o'rtasidagi ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va professional aloqalar majmuasi tushuniladi. Bu tizim o'z navbatida quyidagi jihatlariga asoslanadi, o'zaro hurmat va ishonch, samarali muloqot va fikr almashinuvi va jamoaviy hamkorlik va muvofiqlik.

2. Talabalarning ijtimoiy faolligi deganda nimani tushunamiz? Ijtimoiy faollik - bu talabalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o'z fikrini erkin bildirish, tashabbus ko'rsatish, ijtimoiy loyihalarda qatnashish qobiliyati va istagini anglatadi. Faol talabalar: yetakchilik qobiliyatlariga ega bo'ladi, talabalar kengashlari va klublarida faol bo'ladi, ijtimoiy masalalarda tashabbus bilan chiqadi va shu bilan bir qatorda, ommaviy tadbirlarda faol qatnashadi.

3. Ijtimoiy faollikni oshirish omillari haqida gapiradigan bo'lsak: ijobiy shaxslararo munosabatlar muhiti yaratish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ochiq va samimiy muloqot, teng huquqlilik va hurmat asosida aloqalar, konfliktlarni tinch yo'l bilan hal etish madaniyatini shakllantirish hisoblanadi. Bunda biz, ijtimoiy-psixologik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish, stressni yengish bo'yicha treninglar hamda psixologik maslahatlarni ham kiritamiz. Oliy o'quv yurtlarida nafaqat o'qitish, balki, talabalar muammolarini eshitish va ularni yechishga yordam berishni ham yo'lga qo'yish zarur bo'ladi. Ma'lumki, talabalar o'zini-o'zi boshqarish tizimini rivojlantirishda talabalar kengashi, yoshlar ittifoqi, fan klublarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash ishlari amalga oshirib boriladi, bunda, talabada yetakchilik va jamoaviy boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish ham ahamiyatli hisoblanadi. Bunda talabalarning ijtimoiy loyihalar va tadbirlarda ishtirokini rag'batlantirish, madaniy, sport, ekologik tadbirlarda qatnashish imkoniyatlarini yaratish, tashabbus ko'rsatgan talabalarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ijtimoiy tarmoqlar va platformalarda ijtimoiy faollikka undovchi loyihalarni ilgari surish, onlayn muloqot va jamoaviy platformalarni rivojlantirish yuqori samara beradi.

4. Pedagogik va tarbiyaviy jarayonlar orqali ijtimoiy faollikni oshirish deganda, faoliyatga yo'naltirilgan o'quv metodlari: muammo asosida o'qitish, loyihaviy ishlar, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil fikrlash va tanqidiy qarashlarni shakllantirish, ijtimoiy ahamiyatli mavzularni muhokama qilish orqali talabalarni fikrlashga jalb qilish mumkin. Kadrlar tayyorlash tizimida ta'limni tubdan isloh qilish hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash yo'lida oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnika, o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, yangi o'quv adabiyotlarini yaratish, eng asosiysi, kadrlarning kasb malakasi va mahoratini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar asosida samarali ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish zaruriyati ortmoqda. Milliy





ta'lim tizimini isloh etishda innovatsion jarayonlarni qo'llashni faollashtirish va samaradorlikni oshirish masalasini hal etmay turib muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Mamlakatimizni 2017-2021 yillarga rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilganligi va ushbu strategiyada: ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil qilish, kadrlarni salohiyatini muntazam oshirib borish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatini takomillashtirish masalalarining belgilanganligi bu yo'nalishda albatta rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va tahlil qilishni taqozo etishi mumkin. Oliy ta'limning maqsadi – shaxs va jamiyatning ko'plab madaniy-ta'limiy ehtiyojlarini qondirish uchun oliy ta'lim muassasasining imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim tizimi uchun mutaxassislarni umummadaniy, ilmiy va kasbiy layoqatlarini rivojlantirish tizimining qulayligini oshirish, bunda mehnat bozori va iqtisodiyotning ehtiyojlarini aniq hisobga olishdan iborat. Oliy ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni talabalarning inson va jamiyat, tarix va madaniyat haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, tayanch fundamental bilimlarni egallash, ilmiy faoliyatga yo'naltirish, kasbiy pedagogik-psixologik bilim asoslarini singdirish, kreativlikni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishni beradi. Shu bilan bir qatorda, bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim olish va ijodiy pedagogik-psixologik faoliyatini davom ettirish huquqini ta'minlashdan iborat. Shuni ta'kidlash lozimki, oliy ta'lim muassasalari mamlakat rivojlanishiga xizmat qiladi. Psixologiya fanida shaxsni o'rganish markaziy o'rinlardan birini egallar ekan, muammo ustidagi ishlar psixologiya faniga juda ko'plab maxsus metodlar va amaliy natijalar tahlilini yetkazib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A dizova T.M. Psixokorreksiya. - T.2005.
2. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. - Buxoro, 2007
3. Колесникова Г.И. Основы психопрофлактики и психокоррекции. Ростов - н/Д.: Феникс. 2002.
4. Лебедева Л.Д. Практика Арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. - СПб.: Речь, 2003.
5. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. -T.: TDPU, 2006. - 162 b
6. [Kurbankulova Z. Talabalarning oliy ta'lim muhitiga moslashish omillari. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022.](#)
7. [Murtazayeva D. Oliy ta'lim muhitida shaxsning moslashuv jarayonlari. – Toshkent: TDPU, 2020.](#)
8. [Musurmonova O. Talaba yoshlarning ma'naviy-psixologik rivojlanishi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022.](#)

